

## 2019 YILDA TOSHKENT SHAHRIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI.



Turizm deganda odatiy muhitdan tashqarida bo'lgan joylarida ketma-ket bir yildan oshmaydigan vaqt davomida dam olish, sayohat, biznes va boshqa maqsadlarda tashrif buyuradigan shaxslarning faoliyati tushuniladi, mamlakatda ro'yxatdan o'tgan korxonada ishga joylashishi bundan mustasno.


Toshkent shahrida juda ko'p mehmonxonalar: shohona besh va to'rt yulduzli mehmonxonalardan tortib kichik xususiy mehmonxonalar faoliyat yuritadi.



## Toshkent shahridagi mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (2017-2019yillar).


	Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, birlik	Ulardagi ob'ektlar soni, birlik	Joylashtirilgan shaxslar soni, ming kishi
2017 yil	148	157	763,0
2018 yil	176	190	1001,5
2019 yil	205	216	990,6

### Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari faoliyati dinamikasi (2017-2019 yillar)



2019 yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 205 tani tashkil etdi, bu 2018 yilga nisbatan 29 taga ko'p. 2018 yilda mehmonxonalarga joylashtirilganlar soni 1001,5 ming kishini, 2019 yilda esa 990,6 ming kishini tashkil etadi. Ularda joylashgan ob'ektlar soni 2018 yilga nisbatan 2019 yilda 26 taga ko'paydi.


**Tumanlar bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari faoliyati, tumanlar kesimida (2017-2019 yillar).**



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni bo'yicha Yakkasaroy tumanida 2019 yilda 66 tani tashkil qilgan bo'lsa, Uchtepa va Bektemir tumanlarida ular soni 3 tadanni tashkil qilmoqda.



### 2019 yilda Toshkent shahridan sayohat qilish maqsadida ketgan fuqarolar taqsimoti, ming kishi



2019 yilda fuqarolarning 408,5 ming nafari ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar uchun, 340,0 ming nafari ta'til va dam olish maqsadida, 99,0 ming nafari boshqa shaxsiy maqsadlarda, 61,8 ming nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 30,8 ming nafari qarindoshlarni yo'qlash, 61,8 ming nafari ta'lim olish maqsadida, 32,4 ming nafari davolanish, 11,6 ming nafari ziyorat qilish maqsadida, 4,5 ming nafari tranzit maqsadida va 1,9 ming nafari do'konlarga tashrif buyurish maqsadida tashrif buyurishgan.

### 2019 yilda mehmonxonalarning toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati.


	Mehmonxonalar soni, birlik	Ulardagi ob'ektlar, birlik
<b>Jami:</b>	<b>196</b>	<b>203</b>
1 yulduzli	76	83
2 yulduzli	4	4
3 yulduzli	17	17
4 yulduzli	5	5
5 yulduzli	4	4
<b>Toifaga ega bo'lmaganlar</b>	<b>90</b>	<b>90</b>

2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra Toshkent shahrida 196 ta mehmonxona mavjud. Ulardan toifasi bo‘yicha: 76 ta 1 yulduzli mehmonxonalar, 4 ta 2 yulduzli mehmonxonalar, 17 ta 3 yulduzli mehmonxonalar, 5 ta 4 yulduzli mehmonxonalar, 4 ta 5 yulduzli mehmonxonalar va 90 ta toifaga ega bo‘lmagan mehmonxonalaridir.

Shuni ta’kidlash kerakki, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (mehmonxonalar) yildan-yilga o‘tib bormoqda, masalan, 2019 yilda ularning soni 177 tani tashkil etadi, ushbu ko‘rsatkich 2018 yilda 145 tani tashkil etgan.



**2019 yilda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, ming kishi**




**2019 yilda turlish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi**

	jami	1 - 3 kun tunash	4 - 7 kun tunash	8 - 28 kun tunash	29 - 91 kun tunash	92-182 kun tunash	183-365 kun tunash
<b>Joylashtirilgan shaxslar, jami</b>	990551	839366	120906	25486	4448	325	20
<b>Shu jumladan fuqarolar:</b>							
<b>O'zbekistondan</b>	444819	370957	57637	13621	2318	271	15
<b>MDH mamlakatlaridan</b>	178053	149361	23114	4093	1458	24	3
<b>Uzoq xorijiy mamlakatlardan</b>	367679	319048	40155	7772	672	30	2

2019 yilda Toshkent shahrida joylashtirilgan shaxslarning umumiy soni 990,5 ming kishini tashkil qildi.



**2019 yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, % da**



Ulardan 444,8 ming kishi O'zbekiston fuqarolaridir, bu umumiy sonining 45,0% ni tashkil etadi, MDH mamlakatlaridan - 178,0 ming kishi (ularning umumiy sonining 18%), boshqa mamlakatlardan - 367,6 ming kishi (ularning umumiy sonining 37,0%).

